

**“Mintaqaviy Ekologik Sammit – 2026”
doirasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy pavilyoni
dizaynini ishlab chiqish bo‘yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

(2026-yil 22–24-aprel, Qozog‘iston, Ostona)

1. Umumiy ma’lumot

Obyekt nomi: O‘zbekiston Respublikasi Milliy pavilyoni

Tadbir: Mintaqaviy Ekologik Sammit – 2026

Pavilyon maydoni:

100–120 m²

Format:

Interaktiv elementlar, multimedia va uchrashuv maydoniga ega ko‘rgazma hamda taqdimot pavilyoni.

Maqsad:

O‘zbekiston Respublikasining milliy ekologik va iqlim kun tartibini, milliy ekologik loyihalarni taqdim etish va mamlakatning barqaror rivojlanish sohasidagi mintaqaviy hamda xalqaro hamkorlikka qo‘shgan hissasini ko‘rsatish.

2. Pavilyonning konseptual maqsadlari

Pavilyon quyidagilarni bajarishi kerak:

- O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi iqlim va ekologik muammolarni hal qilishdagi mintaqaviy yondashuvini aks ettirishi;
- mamlakatning Orol dengizi fojiasi oqibatlarini bartaraf etishga qo‘shgan hissasini namoyish etishi;
- milliy ekologik loyihalarni barqaror rivojlanish uchun amaliy vositalar sifatida taqdim etishi;
- BMT agentliklari bilan hamkorlikni va O‘zbekistonning muvofiqlashtirilgan mintaqaviy yechimlarni shakllantirishdagi rolini ta’kidlashi;
- muloqot, taqdimotlar va muzokaralar uchun platforma bo‘lib xizmat qilishi.

3. Pavilyonning majburiy tematik bloklari

Pavilyon dizaynida quyidagi **umummilliy loyihalar** bo‘yicha alohida **vizual va tematik zonalar** majburiy tarzda nazarda tutilishi lozim:

Umummilliy loyihalar:

(a) “Chiqindilardan xoli hudud”

— chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, qayta ishlash, sirkulyar iqtisodiyot, *zero waste* (nol chiqindi) tamoyillari.

(b) “Toza havo”

— atmosfera havosi sifatini yaxshilash, monitoring, chiqindilarni kamaytirish, transport va sanoat sohasidagi choralar.

(v) “Yashil makon”

— Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida botanika va dendrologiya bog‘larini barpo etish (2028-yilgacha kamida 50 gektar).

(g) “Ekologik madaniyat”

— aholida ekologik madaniyat, eko-an‘analar va ekologik turmush tarzini shakllantirish.

(d) “Biomeros”

— bioxilma-xillikni saqlash, ekotizimlar va noyob turlarni kelajak avlodlar uchun muhofaza qilish.

(e) Ekologik ta’lim — “Green University”

— ekologiya va iqlim sohasida kadrlar tayyorlash, fan, tadqiqotlar, innovatsiyalar va ta’limni rivojlantirish.

4. Pavilyonning funksional zonalari

Dizayn quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

1. Kirish zonasi / asosiy xabar

– O‘zbekistonning mintaqaviy ekologik yetakchi sifatidagi vizual obrazi.

2. Loyihalar bo‘yicha ekspozitsiya zonalari

– har bir mavzu aniq o‘qiladigan, umumiy konsepsiya bilan mantiqan bog‘langan bo‘lishi kerak.

3. Multimedia zonasi

– ekranlar, interaktiv panellar, xaritalar, videolar va infografikalar.

4. Muzokaralar / taqdimotlar zonasi

– uchrashuvlar, hujjatlar imzolash va brifinglar o‘tkazish uchun.

5. Hamkorliklar va BMT zonasi

– qo‘shma dasturlar, mintaqaviy tashabbuslar, deklaratsiyalar va 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan harakatlar rejalari.

5. Dizaynga qo‘yiladigan talablar

- Zamonaviy, ekologik va barqaror dizayn (ekomateriallardan foydalanish, qayta ishlatish imkoniyati);
 - BMT va xalqaro forumlar uslubiga moslik;
 - Aniq navigatsiya va vizual ierarxiya;
 - Yashil, tabiiy va neytral rang yechimlaridan foydalanish;
 - Kontentni turli auditoriyalarga (davlat rahbarlari, ekspertlar, OAV, yoshlar) moslashtirish imkoniyati.
-

6. Dizayner / pudratchidan kutilayotgan natijalar

- Pavilyon konsepsiyasi (idea note);
 - Rejalashtirish yechimi (zoning);
 - Pavilyonning 3D-vizualizatsiyasi;
 - Multimedia bilan to‘ldirish bo‘yicha takliflar;
 - Materiallar va qurilish bo‘yicha tavsiyalar.
-

7. Yakuniy pozitsiyalash

O‘zbekiston Respublikasi Milliy pavilyoni Sammitning asosiy nuqtalaridan biriga aylanishi, mamlakatning Markaziy Osiyoda ekologiya, iqlim va barqaror rivojlanish masalalariga amaliy, ilmiy asoslangan va mintaqaviy yo‘naltirilgan yondashuvini namoyon etishi lozim.